



XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING QARORI

190400. Boysun tuman. Hayot abadiy ko'chasi 1-uy. tel (376)33 53259

2023 - yil 17 - aprel

VI-62-51-8-110-K/23

Boysun tuman hokimligi

2023-yil 1-chorak davomida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli va Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 27-maydagi "Boysun tuman mahalliy budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi 187/28-6-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 27-29-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi qaror qiladi:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 27-maydagi "Boysun tuman mahalliy budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi 187/28-6-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 27-bandiga asosan 2023-yil 1-chorak davomida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman hokimligi iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i T.Jumayevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yil 1-chorak davomida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar, o'tkazilgan tashabbusli budget jarayoni yakunlariga ko'ra ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lar miqdori, ya'ni tashabbusli budget natijalari bo'yicha ma'lumotlar 1-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi iqtisodiyot va moliya bo'limi (T.Jumayev) tuman g'aznachilik bo'linmasi (F.Samadov) shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag'larni belgilangan tartibda g'olib takliflarni moliyalashtirish, natijalari bo'yicha ma'lumotlarni tuman hokimligi axborot xizmati (Yu.Xoliyorov) bilan birgalikda keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiqbudjet" axborot portali hamda

tumandagi ijtimoiy tarmoqlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Ush bu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Boysun tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (O‘.Jabborov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi v.b



**UZBEKOVA ZOHIDA
BAXROMOVNA**

Xalq deputatlari Boysun tuman Kengashining
2023 yil 17 apreldagi
VI-62-51-8-110-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha

MA'LUMOT

| T/r | Ko'rsatkich nomi | Summa (mln so'm) |
|------|--|---------------------|
| 1. | Yil boshiga qoldiq | 1 580,3 |
| 2. | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'* | 7 031,9 |
| 3. | Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar** | 0,0 |
| 3.1. | Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar | 0,0 |
| 3.2. | Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar | 0,0 |
| 4 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar | 7 031,9 |

Xalq deputatlari Boysun tuman Kengashining
2023 yil 17 apreldagi
VI-62-51-8-110-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023-yilda o'tkazilgan Tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga ko'ra ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lar bilan shartnomaga muvofiq yakuniy mablag'larga nisbatan bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg'armaga qayta tiklash miqdori to'g'risida

MA'LUMOT

| № | 3-bosqich - "ovoz berish" jarayonining yakuniy natijalariga ko'ra "g'olib" deb topilgan takliflar bo'yicha | | | 01.04.2023-holatiga haqiqatda amalga oshirilgan ishlar | | | | | | TB jarayoni yakunlariga ko'ra ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag' bilan shartnomaga muvofiq yakuniy mablag'larga nisbatan bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg'armaga qayta tiklash miqdori |
|--------------|--|-----------|--------------------------|--|--|-----------------------------------|-------------------------------------|----------------------------------|--------------------------------|---|
| | | | | Takliflarning dastlabki qiymati | Loyiha-smeta hujjatlariga asosan yo'naltirilgan mablag'lar miqdori | Shartnomaga muvofiq yakuniy summa | Haqiqatda bajarilgan ishlar qiymati | Amalga oshirilgan kassa xarajati | Shartnomaga muvofiq qarzdorlik | |
| | takliflar nomi | ID raqami | to'plangan ovozlari soni | | | | | | | |
| 1 | | | | | | | | | 0 | 0 |
| 2 | | | | | | | | | 0 | 0 |
| Jami: | | X | X | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |